

## BOLA SHAXSIGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM TEXNOLOGIYASINING MAZMUNI.

**Xasanova Gulnoza Ilhom qizi**  
*JDPU, Maktabgacha ta'lism metodikasi o'qituvchisi,*  
**Isroilova Xurriyat**  
*Maktabgacha ta'lism yo'nalishi talabasi.*

**Annotatsiya:** *Bolaga yo'naltirilgan ta'lism o'quv jarayonini loyihalashning o'ziga hos tomonlarini hisobga olishni, ya'ni bolashaxsi modeliga avvaldan belgilab qo'yilgan talablardan yiroq bo'lishni taqozo etadi. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lism tashkilotlarida bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'lism texnologiyasi xaqida s'z borgan.*

**Kalit so'zlar:** intensiv va interfaol metodlar, ijtimoiy va ma'naviy hayot, zamonaviy texnik vositalar, an'anaviy pedagogik texnologiya, mustaqil, insoniylik falsafasi, tashabbuskorlik, javobgarlikni his etish, tanqidiy fikrlash.

Bugungi kunda maktabgacha yoshdag'i bolalarni har tomonlama rivojlangan, jismonan sog'lom, aqlan yetuk va ma'naviy jihatdan shakllangan etib voyaga yetkazish dolzarb vazifalardan biri bo'lib kelmoqda. Bu muxim maqsadlar yuqori malakali mutaxassislar, pedagog va ilmiy kadrlar tayyorlash tizimini ilg'or xorij tajribasini o'rganish va uning eng yaxshi yutuqlarini davlat va jamoat tuzilmalari, iqtisodiyot tarmoqlarida tatbiq etish asosida jiddiy qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish zaruratini taqozo etmoqda.

Erkin shaxsni shakllantirish muammosi bugungi kunda ta'lism muassasalarida o'quv-tarbiyaviy ishlarni zamonaviy pedagogik texnologiyaga o'tkazishni taqozo etayotgan bir vaqtda pedagoglardan xam o'z kompitensiyasiga ega bo'lishni toqazo etmoqda desak mubolag'a bo'lmaydi. Ta'limganing globallashuvi, innovatsion texnologiyalarning joriy etilayotgani, ayni paytda keng ko'lamli axborotlar oqimi ta'lism mazmunini muntazam yangilab, takomillashtirib borishni taqozo etadi. Bugungi tez o'zgaruvchan iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy hayot bolalar va yoshlar dunyoqarashini shakllantirish yangi pedagogik interfaol metodlardan keng foydalanishni taqozo qiladi. An'anaviy mashg'ulotlar olib borish asta-sekin o'z o'rnnini intensiv va interfaol metodlarga, noan'anaviy mashg'ulot o'tish ishlariga bo'shatib bermoqda. Ta'lism tizimini modernizatsiyalashda ta'limganing barcha bo'g'inlarida tobora faol qo'llanilayotgan ilg'or pedagogik texnologiyalarning turli yo'nalishi bolalarning ma'naviy kuchi, qobiliyatlarini ochish uchun maqbul sharoit yaratib





bermoqda. Ta'lim tizimida yil sayin rivojlanib borayotgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ta'lim jarayonini sifat va mazmun jihatdan yanada yuqori bosqichga ko'tarishga xizmat qilayotganligi barchamizga ma'lum. Ayniqsa, ta'lim jarayonini mazmunli tashkil etish uchun zamonaviy texnik vositalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bolaga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi bolani butun bir ta'lim tizimining markaziga qo'yadi va unga tabiatan berilgan o'z qobiliyatini ro'yobga chiqarishi uchun har tomonlama qulay, xavfsiz, erkin shart-sharoit yaratadi.

Pedagogik texnologiyaning muhim tarafi ta'lim jarayonidagi bolaning o'rni va unga kattalarning munosabatidir. Pedagogik texnologiyani loyihalashtirishda bolaning individual hamda yosh xususiyatlari, uning tayyorgarlik darajasi hisobga olinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bolaga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi insoniylik falsafasi, psixologiyasi va pedagogikasining uyg'unligini namoyish etadi. Pedagogning diqqat markazida o'zining maksimal imkoniyatlarini ishga solib bilim olishga intilayotgan, yangi tajriba-sinovlarni qabul qila oladigan va hayotning har xil holatlarida mustaqil, ongli va mas'uliyat bilan qaror qabul qilishga qodir bo'lgan butun bir bola shaxsi turmog'i lozim. Bolaga ijtimoiy normalar asosida bilim beruvchi an'anaviy pedagogik texnologiyalardan farqli o'laroq bolaga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasida yuqorida qayd qilingan yo'nalish(sifat)larni bola tomonidan zabit tilishi tarbiyaning asosiy maqsadi qilib qo'yiladi.

Bolaga yo'naltirilgan ta'lim bola shaxsidagi mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlikni his etish, tanqidiy fikrlash kabi sifatlarini tarbiyalaydi. Bunda bolani ta'lim tizimiga moslashtirmay, balki bolaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda rivojlanishi uchun imkon beriladi, uning o'z-o'zini rivojlantirish, mustaqil o'qish, o'zligini namoyon etish, faollashtirish xususiyatlari asosida anglash, mushohada qilish, o'z amaliy faoliyatida sinab ko'rish, yangi g'oya va fikrlarni bildirish, mavjud muammolar yechimining samarali yo'llarini qidirish uchun erkinlik berish, bolaning ijodiy, tanqidiy tafakkurini rivojlantirish uchun sharoit yaratiladi. Bolaga yo'naltirilgan ta'lim o'quv jarayonini loyihalashning o'ziga hos tomonlarini hisobga olishni, ya'ni bolashaxsi modeliga avvaldan belgilab qo'yilgan talablardan yiroq bo'lishni taqozo etadi. Ijtimoiy o'sish jarayonlarining shaxsga bo'lgan ta'sirini hisobga olgan holda ta'lim jarayonida har bir bola o'zini yoshlik davri nashidasini sezishi, balog'at davrida erkin, mustaqil, ijodkor va har tomonlama barkamol inson bo'lib

o'sishini hisobga olish zarur omillardan biridir.

Bolaga yo'naltirilgan ta'limda bolada belgilangan sifatlarning shakllanishiga qaratiladi. Bola shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim tarbiyalanuvchining shaxsiy imkoniyatlariga moslashtirilgan pedagogik muhitni hamda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning psixologik shart-sharoitlarini nazarda tutadi. Bu ta'lim





texnologiyasida har bir bolani tushunish, hurmat qilish, unga ishonish, hamkorlikda ishlash kabi xususiyatlarni o'zida mujassamlashtiradi. Mustaqil fikrlashga o'rgatish zarurati, qolaversa mustaqillikni mustahkamlash ehtiyojini ko'zlab, xalq ruhiga singib qolgan mute'lilik, jur'atsizlik, tobelik, o'z fikrini yakdil bayon eta olmaslik kabi illatlarni tugatish, shuningdek serandishalik, noo'rin sabr-toqatlilik kabi fazilatlarni ongidan chiqarish zamonaviy ta'lif talablaridan sanaladi.

Xulosa qilib aytganda, bola shaxsini rivojlantirishga qaratilgan texnologiya asosida tarbiyalanuvchi–tarbiyachi hamda tarbiyalanuvchi-tarbiyalanuvchi hamkorligi ko'zda tutilgan bo'lib, bu jarayonda ta'lif-tarbiya ijobiy natijalarga yo'naltiriladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.**

1. L.R.Mirjalolova Tanlov fani moduli T.: Iste'dod, 2018. – 223 b.
  2. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. –T.: O'z MU. 2003. - 66 b.
  - 3.M.Usmonova. O'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalar Ta'lif texnologiyalari. 2016 yil. 4-son
  4. R.Mirjalolova Mashg'ulotlarni o'tkazish metodikasi moduli T.: Iste'dod, 2018. – 257 b
- Internet manbalari.
1. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
  2. www.google.uz.

